



REMARKS ON THE FEATURES OF THE ANCIENT CASTLES OF THE KHOREZM OASIS

Kh. A. Palvanov

Lecturer

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Jonboskala, S.P. Tolstov, Ya. Gulomov, Korgoshinkala, Oqchadarya, Bazarkala, Katta Guldursunkala, Kyrgyz Canal, G. Khodzhanizayov, Kushan, Ayoqkala, Dumankala, Kyzylkala, Tuproqkala.

Abstract: The article discusses considerations regarding the characteristics of the fortresses of the Khorezm oasis of antiquity, and discusses the location and characteristics of the fortresses of Khorezm from the 4th century BC to the 4th century AD.

Received: 05.05.25

Accepted: 07.06.25

Published: 09.06.25

XORAZM VOHASI ANTIK DAVRI QAL'ALARINING XUSUSIYATLARIGA OID MULOHAZALAR

H. A. Palvanov

o'qituvchi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Jonbosqal'a, S.P. Tolstov, Ya.G'ulomov, Qo'rg'oshinqal'a, Oqchadaryo, Bozorqal'a, Katta Guldursunqal'a, Qirqqiz kanali, G'. Xodjaniyazov, Kushon, Ayoqzal'a, Dumanqal'a, Qizilqal'a, Tuproqqal'a.

Annotatsiya: Maqolada Xorazm vohasi antik davri qal'alarining xususiyatlariga oid mulohazalar to'g'risida so'z yuritilib, miloddan avvalgi IV asrdan milodiy IV asrgacha bo'lgan Xorazm qal'alarining joylashish o'rni va xususiyatlari to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

ЗАМЕЧАНИЯ ОБ ОСОБЕННОСТЯХ ДРЕВНИХ ЗАМКОВ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

Х. А. Палванов

преподаватель

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Джонбоскала, С.П. Толстов, Я. Гуломов, Коргошинкала, Акчадарья, Базаркала, Катта Гулдурсункала, Кыргызский канал, Г.Ходжаниязов, Кушан, Айозкала, Думанкала, Кызылгала, Тупроккала.	Аннотация:	В статье рассматриваются соотношения относительно особенностей крепостей Хорезмского оазиса древности, а также рассматриваются местоположение и характеристики крепостей Хорезма с IV века до нашей эры по IV век нашей эры.
------------------------	---	-------------------	--

Jonbosqal'a yodgorligidagi devor shinaklarining barchasidan bir vaqtning o'zida kamondan o'q otib turish uchun ikki minga yaqin jangchi kamonchilar talab etilgan. Bu qal'aning darvozasi murakkab darvozaoldi inshootlar bilan himoya qilingan. Darvozadan kirgan dushmanlar bu mudofaa inshootning ichida adashib tor yo'lga chiqib qolgan, bu yo'l to'g'ri burchak hosil qilib buriladi va beshta tirsakdan iborat bo'lib, ular ichkari tarafga qarab ochilgan va shinaklardan o'qqa tutilgan. S.P. Tolstov Jonbosqal'aning himoyalani usuli uning mudofaasida qal'aning barcha aholisi, erkaklardan tashqari ayollarning ham ishtirok etishiga mo'ljallangan tizim ekanligini aniqlashga imkon beradi deb aytib o'tgan [1]. Aholi o'zining kundalik mashg'ulotlari bilan mashg'ul bo'lishidan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy va harbiy sohalarda ham faol bo'lib kelishgan. Davlat sarhadlariga dushman bostirib kirganda erkaklardan tashqari hatto ayollarning ham mudofaada mardonavor ishtirok etishi, o'z oilasini hududini jon-jaxdi bilan himoya qilishi bu jasorat va vatanparvarlikning yorqin timsolidir. Ya.G'ulomov Xorazmning sug'orilish tarixi kinobida qal'adagi aholi soni taxminan hisoblab chiqilsa, uni mudofaa qiluvchilar soni juda kamchilikni tashkil qiladi va bir qarashda shinaklarning soni qal'ani himoya qiluvchilar soniga muvofiq tushmaganday ko'rinadi. Qal'a mudofaasiga uning atrofida yashovchilardan himoyachilar kelib qo'shilsa, Jonbosqal'aning mudofaa tizimi ko'z oldiningizda gavdalanadi. Tashqaridan dushman bostirib kirganda atrofda aholi o'z chorvasi va mol-mulkini olib qal'ada jon saqlaganligini tarixiy adabiyot va xalq og'zaki ijodiyotida ham kuzatish mumkin. Yodgorlik miloddan avvalgi IV-III asrlarda bunyod etilgan bo'lib, miloddan avvalgi IV milodiy I asrlarda kangyuyar madaniyatini ko'ramiz[2]. S.P. Tolstov bu qal'ani tasvirlab, qal'a yonida, uning darvozasi qarshisidagi tekislikda joylashgan va g'arb tomonga qarab uzoq cho'zilib borgan qishloq haqida ma'lumot keltirmagan. Qishloq joylashgan hududda aholi uylarining toshdan va paxsadan qilingan poydevorlari, kulolchilik mahsulotlarini pishiradigan humdonlarning qoldiqlari va sug'orish tarmoqlari va boshqalarni ko'rish mumkin. Bu qishloqni qal'a bilan solishtirsa, hududning umumiy aholisi qal'adan tashqari joyda yashaganliklariga amin bo'lasiz[3]. Jonbosqal'aning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning devorlari Xorazm qal'alarining deyarli hammasida mavjud bo'lgan burjlardan holi ekanligidadir. Qadimgi shahar va qal'alarda burj tiklash shunchalik katta o'rin tutganki, bu an'ana to'nggi vaqtlargacha ham, hattoki, unga ehtiyoj bo'lmasa ham saqlanib kelganligini ko'rish mumkin.

Keyingi yodgorlik Qo'rg'oshinjal'a bo'lib, Jonbosqal'aning shimoliy tomonida, Oqchadaryo havzasining Qizilqum bilan chegara hududi yaqinida joylashgan. S.P. Tolstov manzilgohni ilk bora kushon davriga[4], undan keyin esa qang'uy davriga oid deb hisoblagan edi[5]. Olib borilgan keyingi tadqiqotlar ushbu fikr to'g'riligini ko'rsatdi[6]. Qo'rg'oshinjal'a tuzilishi to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib 132x89 metr. Yodgorlik ikki qatorli devor bilan o'rab olingan bo'lib, ba'zi joylarning balandligi 14-16 metrni tashkil etadi. Mudofaa devorlari ikki xil yarim aylana va to'g'ri burchakli burjlar bilan mustahkamlangan. Devorlardagi burjlarning joylashishi o'ziga xos bo'lib, turlicha maydon hosil qilgan. Kirish joyi janubiy-sharqiy devorning markazida bo'lib, to'rtburchak shakldagi peshdarvoza inshoot bilan yanada mustahkam qurilgan[7]. Yodgorlikga Bozorqal'a kanalining oxirgi irmoqlari yetib borgan bo'lishi mumkin, nimaga deganda Jonbosqal'aning shimoliy qismida kanal izlari batamom tugagan[8]. Olib borilgan tadqiqotlar va qadimgi sug'orilgan yerlardagi irrigatsion tarmoqlarni tekshirish natijasida antik davrdagi kanallar o'zani sayoz bo'lgan, shu bilan birga eni kengroq bo'lgan. Bu ayniqsa Qo'rg'oshinjal'a, Jonbosqal'a va Bozorqal'a yodgorliklarida ko'zga tashlanadi.

Katta Guldursunqal'a yaqinidagi Qirqqiz kanalidan janubdan shimolga tomon 70 km uzoqlikda Katta Qirqqizqal'a va undan g'arbda Sulton Uvays tog'i yaqinida Kichik Qirqqizqal'a joylashgan. Katta Qirqqiz tarhi to'g'ri to'rtburchak shaklida, maydoni 250x215 metr bo'lib, mudofaasi qo'shdevor bilan o'rab olingan. Tashqi devor tomonida 26 metr oraliq masofada to'g'ri to'rtburchakli minoralar qurilgan. Qal'aning kirish qismi shimoliy-sharqiy devor markazida joylashgan bo'lib, peshdarvoza bilan mustahkamlangan[9]. G'. Xodjaniyazov yodgorlikda olib borgan tadqiqotlari natijasida qo'lga kiritilgan moddiy manbalarga asosanib, qal'aning bunyod etilishini miloddan avvalgi IV-III asrlar bilan belgilagan[10]. Kichik Qirqqizqal'a istehkomli bo'lib, mudofaa devorlari mustahkam qilib qurilgan. Devor boshida paxsadan undan keyin kvadrat shakldagi xom g'ishtlardan ko'tarilgan. Turli tarhga ega bo'lib, bir-biriga yondashgan g'arbiy va sharqiy qismlardan tashkil topgan[11]. Qal'aga kirish darvozasi sharqiy tomondan bo'lgan. G'. Xodjaniyazov yodgorlikning mazkur qismini qangyuy davri ga oid deb hisoblaydi[12]. Kichik Qirqqiz miloddan avvalgi IV-III asrlarda yani qangyuy davrida dehqonchilik vohalarini himoya qilish uchun strategik punktdagi chegara qal'a sifatida barpo qilingan. Uning yuzaga kelishi qal'aning chegara punkti sifatidagi ahamiyati oshib borganligi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Kushonlar davriga kelib III-IV asrlar boshida suv tanqisligi sababli bu joy bo'shab qolgan[13]. Bu hudud qangyuy davrida rivojlanib borgan. Vaqt o'tishi bilan ya'ni kushonlar davriga kelib kanallar irmoqlaridan suv kelishi kamayib borib, bora-bora to'xtab qoladi. Buning sabablaridan biri kanallarning sayozligi va tashqi dushmanlarning bosqinchilik yurishlari bilan izohlash mumkin.

Ayozqal'a yodgorligi to'g'risidagi ilk ma'lumotlar 1941 yilda S.P.Tolstov tomonidan ilgari surilgan[14]. Ya.G'ulomov Ayozqal'a 1 II-IV asrlarga tegishli yodgorlik bo'lib, harbiylar

turadigan gornizon deb hisoblagan. Ayozaqal'a 1 bilan Ayozaqal'a 2 da hayot bir vaqtda davom etgan. Shundan kelib chiqib Ya.G'ulomov, Ayozaqal'a 2 ni Ayozaqal'a 1 mudofaasining asosini tashkil etuvchi jangchilar qo'rg'oni sifatida ta'riflagan[15]. Ayozaqal'a 1 yarim doira tuzilishidagi baland qo'shdevorlar bilan o'rab olingan bo'lib, qal'a burchaklarida ikki burjning qo'shilishidan "Qaldirg'och dumi"li shakl hosil bo'lgan. Bu qurilish usuli ilk marotaba kushonlar davrida Xorazmning harbiy qo'rg'on quruvchi ustalari tomonidan qo'llanilgan[16]. Ayozaqal'a 1 vohaning shimoliy qismi sarhadlari bo'yicha markaz bo'lgan, o'ziga xos inshootdir. Qal'a vohani Sulton Uvays tog'i va Qizilqum tarafdin kelishi mumkin bo'lgan ko'chmanchi dushmanlardan himoya qilish uchun qurilgan[17]. Ayozaqal'a ham shunday mustahkam himoyaga ega bo'lib, alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa kushonlar davriga kelib qaldirg'och dumli shakliga ega bo'lgan burjlarning kashf etilishi o'troq mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-harbiy jihatdan ravnaq topib, davlatchilik tuzumini yuksaltirishga xizmat qilgan.

Ayozaqal'a yodgorligi hudud jihatidan kattaroq manzilgoh bo'lib, maydoni 4,5 ga ni tashkil etadi[18]. Qal'a ikki qator baland qo'sh devor bilan o'rab olingan. Qal'a devorlari to'rtburchak shakldagi burjlar bilan mustahkamlangan. Shahristonga g'arbiy devorning markaziy qismi orqali kirilgan bo'lib, peshdarvoza istehkomi bilan himoyalangan[19]. Ayozaqal'a yodgorligi tepalikda barpo etilgan. Hozirgi kunda ham mahobatli devorlari va undagi burjlarining ayrim qismlari saqlanib qolgan.

Dumanqal'a yodgorligi hududida Tuproqqal'a kanali ikki irmoqqa ya'ni Gavxo'ra va Toshxirmon kanallariga ajralgan. Dumanqal'a qadimgi Gavxo'ra va Toshxirmon suniy sug'orish inshootlarining boshlang'ich qismida joylashgan bo'lib, davlatning asosiy harbiy qo'rg'oni hisoblangan. Qal'a uch qismdan iborat bo'lib, umumiy maydoni 7,6 gektarni tashkil etgan. Janubiy tomonida joylashgan qismi esa kvadrat shaklda rejalashtirilgan bo'lib, hajmi 3 gektardan iborat. Ark qismi shimoliy-sharqiy burchagida joylashgan va devor bilan o'rab olinib, uning uch burchagida yarim doirasimon burjlari mavjud. Shahristonning sharqiy tomoni qadimiyroq bo'lib, u erdan topilgan kulolchilik buyumlari yodgorlikning I-III asrlarga oidligini tasdiqlaydi. Devor va ark paxsadan qurilgan bo'lib, uning yuqori qismi kvadrat shakldagi xom g'ishtdan qurilgan. Qal'a devorlari shinaklar bilan kuchaytirilgan[20].

Qizilqal'a manzilgohi Tuproqqal'a kanalining shimoliy irmog'i tarmog'ida joylashgan. Qal'a tarhi deyarli kvadrat shaklda bo'lib 65x63 metr. Mudofaa devorlari ancha yaxshi saqlangan. Devorning balandligi ba'zi joylarda hozir ham 13-16 metrga yetganligi odamni hayratga soladi. Yodgorlikning ichki qismi tor va uzun yo'laklardan iborat bo'lib, usti sinch bilan yopilgan xonalardan iborat. Shulardan kelib chiqib S.P. Tolstov va Ya. G'ulomovlar Qizilqal'a majmuasi harbiy gornizonga mo'ljallab qurilgan degan xulosaga kelganlar. Qizilqal'ada hayot I-IV asrlardan o'rta asrlargacha davom etgan[21]. Bu yodgorlik ham o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Suv yoqalab barpo etilgan qal'alar mustahkam qo'rg'on bo'lib, mahalliy aholi uchun tashqaridan dushman bostirib kirkanda asosiy himoya markazi bo'lgan. Qizilqal'aning mustahkamligi bu hududda istiqomat qiluvchilarning joniga oro kirgan. Hozirgi kunda ham saqlangan devorlari o'zining salobatini yo'qotmagan.

Qizilqal'a yodgorligining shimoliy qismi, Sulton Uvays tog'ining janubiy tomoni, Ayoqzal'aning g'arbiy tarafida Burliqal'a majmuasi joylashgan. O'rganilayotgan davrda Gavxo'ra kanalidan Burliqal'a yodgorligi tomon sug'orish inshooti qurilib dehqonchilik hududlari suv bilan ta'minlangan. Burliqal'a vohaning shimoliy chegara qal'alari tizimiga kirgan. Yodgorlik murakkab tashqi ko'rinishga ega bo'lib, shimoliy-sharqiy tomondan janubiy-g'arbga qarab cho'ziqroq usulda bunyod etilgan. Mudofaa devorida nayza shakldagi shinaklari ko'proq bo'lib, Jonbosqal'a devoridagi kabi minora va burjlarga ega emas. Burliqal'aning asosiy kirish darvozasi shimoliy tomonda joylashgan[22]. Ya.G'ulomov bu hududda tadqiqotlar olib borib, qal'ani qang'uy davrining oxirlariga oid deb fikr bildirgan[23].

Sulton Uvays tog'idan 1,5 km janubroqda Govurqal'a yodgorligi joylashgan. S.P.Tolstov va Ya. G'ulomovlar qal'ani Kushon davriga oid deb hisoblashgan[24]. Qal'aning asosan shimoliy va g'arbiy tomoni saqlanib qolgan bo'lib, mudofaasi mustahkam qo'shdevor bilan o'ralgan. Bu hududda S.P.Tolstov va Ya. G'ulomovlardan keyin tadqiqot ishlari olib brogan V.N. Yagodin miloddan avvalgi IV asrga tegishli moddiy manbalarni topgan. Yodgorlikning qurilish uslubi uchburchaksimon ko'rinishda barpo etilgan[25]. Govurqal'a yodgorligi Amudaryoga yaqinroq masofada bo'lganligidan bu hududda aholiga dehqonchilik mashg'ulotini olib borish birmuncha qulayliklarni keltirib chiqargan.

Dumanqal'a yodgorligida Tozabog'yop kanalining davomi bo'lgan Tuproqqal'a kanali irmog'i ikkita tarmoqqa bo'lingan bo'lib, bular Toshxirmon va Gavxore kanallaridir. Gavxore kanali Tuproqqal'ani suv bilan ta'minlagan, Toshxirmon kanali bo'lsa Aqchaxonqal'aning asosiy sug'orish tizimi hisoblangan. Amudaryoning quruqlikdagi savdo yo'llari Aqchaxonqal'a orqali o'tgan. Bu devorlari mustahkam Aqchaxonqal'a yodgorligi Xorazm vohasidagi antik manzilgohlar orasida alohida o'ziga xos ahamiyatga ega[26]. Aqchaxonqal'a Beruniy tumanidagi Toshxirmon hududida joylashgan bo'lib, murakkab sug'orish tizimi orqali o'zining suvga bo'lgan ehtiyojini qondirgan[27].

Ko'chmanchi chorvadorlar qurg'ochlik yoki boshqa muammolardan kelib chiqib dehqonchilik vohalariga bosqinchilik yurishlari uyushtirishib turishgan. Bu albatta dehqonchilik bilan kun kechiradigan o'troq aholiga turli noqulayliklarni keltirib chiqargan. Natijada mahalliy aholi o'zlarini himoya qilish maqsadida qal'a-qo'rg'onlar bunyod eta boshlashgan. Vaqt o'tishi bilan bu inshootlar yirik baland devorlardan iborat mustahkam mudofaa istehkomlariga aylana borgan. O'ziga xos manzilgohlarining joylashish o'rni, ularning taraqqiyoti natijasida vohada

qishloq xo'jaligi, xunarmandchilik tarmoqlari, ijtimoiy-madaniy hayot gullab-yashnab o'ziga xos tarzda rivojlanib borgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент: 1959. 84-86 б.
2. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Тошкент: Изд-во АН Уз, 1957. С.80-82.
3. Толстов.С.П. По следам древне Хорезмской цивилизации. М.: Наука, 1948. С.145-146.
4. Толстов. С.П. Древний Хорезм. М.: Наука, 1948. С.111-112.
5. Толстов. С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. М.: 1962. С.117-118.
6. Коляков С.П. Раскопки крепости Кургашин кала // Новые открытия в Приаралье. Вып.1. М.: 1991. С. 90-122.
7. Ходжаниязов Г. Оборонительные сооружения Кургашин калы // Археология Приаралья. Вып.2. Тошкент: Фан, 1984. С.39-40.
8. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Тошкент: Изд-во. 1957. С.109-110.
9. Ходжаниязов Г. Большой Кырккиз кала (к вопросу о функции и хронология) // Вестник ККО АН Р Уз. Нукус, 1997. №3. С.26-27.
10. Ходжаниязов Г. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. Тошкент: 2007. 30-32 б.
11. Гертман А.Н. Работы в крепости Малый Кырккиз // АО 1985. М.: Наука, 1987. С.590-592.
12. Ходжаниязов Г. Горадаше Малый Кырккиз кала – памятник раннеантичного Хорезм // Археология Приаралья. Вып. 4. Ташкент: Фан, 1990. С.82-90.
13. Гулямов.Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Ташкент: Изд-во. 1957. С.109-110.
14. Толстов.С.П. Древности Верхнего Хорезма. М.: Наука, 1941. С.166-172.
15. Гулямов.Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Ташкент: Изд-во. 1957. С.102-104.
16. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент: 1959. 108-109 б.
17. Толстов С.П. Древний Хорезм. М.: 1948. С.104-105.
18. Ходжаниязов Г. Новые данные об оборонительных сооружениях Аяз калы // Вестник ККО АН РУз. Нукус, 1987. № 4. С. 102-104.
19. Ходжаниязов Г. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. Тошкент: 2007. 56-57 б.

20. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. М.: 1948. С.168-169.
Я.Гулямов. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Ташкент: Изд-во. 1957. С.109-110.
21. Толстов. С.П. По древним дельтам древнехорезмийской цивилизации. М.: 1948. С.101-102.
22. Я.Гулямов. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. Ташкент: Изд-во. АН Уз 1957. С.94-106
23. Толстов С.П. Древний Хорезм. М.: 1948. С.115-117.
24. Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм муҳофаа иншоотлари. Тошкент: 2007. 31-56 б.
25. Ягодин В.Н., Беттс А. Қўҳна Хоразм жумбоғи. // Фан ва Турмуш // №1-3, 2006. 30-32 б.